

ADABIYOT O'QITISHDA MUSTAQIL FIKRLASHNING AHAMIYATI**Muhammad Yasin Eldash****Razia Sadri Sarepul**

Yuksak o'quy muassasasi o'zbek tili va adabiyoti bo'limi

yasineldash@gmail.com, raziasadri@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqoladi adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars shaklini aniqlab olish muhim ahamiyatga egaligi keng yoritib borilgan. O'quvchilarda mustaqil fikrni shakllantirish yo'llari to'g'risida mulohiza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, mustaqil fikrlash, umumta'lim maktablari, o'quvchi, saboqlar, o'qituvchi mahorati, fikrlash jarayoni.

KIRISH

Har qanday jamiyatning taqdiri, unda yashaydigan insonlar tafakkuri va axloqining qandayligi bilan belgilanadi. Jamiyatni nurli kelajak sari yetaklash ham, tubanlik qa'riga tortish ham shunga bog'liq. Shuning uchun ham jamiyat ahli, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy va intellektual kamoloti muhim hayotiy masala hisoblanadi. Bu hol butun ta'lim tizimi, undagi darslik hamda metodik qo'llanmalarining shu yo'nalishga solinishini taqozo qiladi. Ular mutaxassis tayorlashga emas, balki sog'lom fikrli va ezgu ma'naviyatli odam shakllantirishga xizmat qilishi lozom. Milliy pedagogika ilmi ham ma'naviy barkamol avlod tarbiyalash yo'llarini tadqiq etmog'i zarur.

Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'zbek adabiyoti qay yo'sunda o'qitilishi va bu kechimdagi qaysi metodlardan foydalanishi kerakligi singari savollarga kuchimiz yetkanicha Afg'onistondagi o'zbek maktablarida adabiyot darslari misolida javob berishga harakat qilamiz. Buning uchun, avval, fikr, tafakkur tushunchasi, so'ngra mustaqil fikrlash tushunchasi nima ekanligi hamda ularning barkamol insonni shakllantirishdagi o'rni qandayligini aniqlab olishga urinamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tafakkur- aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak- atrof, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasvvur etgan narsa va hodisalarni



to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliги hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi.

Tafakkur orqali kishi odam va olam sirlarini o'rganib ular orqali mulohaza yuritib, narsa-hodisalar o'rtasidagi munosabat va xususiyatlarni anglab yetadi. Bu haqiqatni hazrat Navoiy: "*Har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod*", - deya ifodalaganlar. Ruhiyat bilan shug'ullanadigan mutaxassislarining dalolat berishlaricha, inson fikrlash jaryonini yuzaga keltirishning asosiy sharti undagi borliq sirlarini bilishga bo'lgan intilish, ichki ehtiyojdir. Bularsiz insonda fikrlash paydo bo'lmaydi. Fikrlash insonning aqlan va ruhan sog'lomligini ko'rsatuvchi asosiy belgidir. Mustaqil fikr esa odamning boshqalarga o'xshamagan yo'sinda o'ziga xos o'lash-fikrlash tarzidir.

Odamda tafakkur va mustaqil fikrni yuzaga keltirishga omil bo'ladigan bir qator faktorlar bor. Misol uchun, izzat nafsnı shunday omillardan biri deyish mumkin. Izzat nafs tafakkur qiladigan har bir kishini yanada teranroq, o'zgalarga o'xshamaydiganroq yo'sinda fikrlashga undaydi. U, haqiqatan, kishi tafakkuri o'sishini qo'llab-quvvatlab, yanada yaxshiroq ishlash, ulkan yutuqlarga erishishga bois bo'ladi. Boshqacha aytganda, izzat nafs tuyg'usi ham ilhombaxsh va ham chegarali bo'ladi; shunga ko'ra bu sifatni takomillashtirish uchun odam o'zidan qoniqmasligi, hozirgi holidan yuksakroqqa intilishi darkor. O'zidan qoniqqan odamning olg'a ketishi qiyind bo'ladi.

O'ziga ishonish, o'z qarash va harakatlarida mustaqil bo'lish, ustuvor irodali, sobit qadamli va yaratishga ishtiyoq ham shaxsni mustaqil fikrlashga undovchi xususiyatlardirki, odam tafakkuri taraqqiyotida ularning o'rni katta. Shunga o'xshagan xususiyatlarga ega bolgan kishilar o'z fikriga muntazam yangilik kiritishga intiladi va umrining ko'p qismini mustaqil fikrlashga sarf qiladi. Shaxs o'zidagi mana shu xususiyatlarni takomillashtirish ustida ishlash, fikr yaratish yo'lini topish, fikriy chegaralarni o'rtadan ko'torib, tafakkur tarzidagi kamchiliklarni yo'qotishga intilishi kerak bo'ladi.

Ma'lum bo'lishicha, fikr mustaqilligi darajasi inson aqliy faoliyatning tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidiyligida aks etadi. Kishidagi fikr mustaqilligining belgilaridan biri bo'lmish tashabbuskorlik insonning o'z oldiga aniq maqsad va vazifalar qo'yishi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usul hamda vositalarni qo'llashida namoyon bo'ladi. Bu faoliyatning pishiqligi vazifalarni tez bajarish, bu jarayonda qo'l keladigan usul va vositalarni tezkorlik bilan izlab topish, ularning eng keraklisini farqlay olishda ko'rinadi. Aqliy faoliyat tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovchining voqea-hodisalarga o'ziga xos munosabati, boshqalarnikiga o'xshamaydigan to'xtanga kela bilishida aks etadi.

Ma'lumki, tafakkur faqat ta'lim jarayonida shakllantirilmaydi. Inson faqat ta'lim-tarbiya muassisalarida fikrlashga o'rgatilmaydi. U har bir ruhan sog'lom insonda tabiatan mavjud bo'lgan aqliy-ruhoni



hosiladir. U har kimda o'ziga xos tarzda, o'z qobiliyati darajasida mavjud. Ta'lim-tarbiya jarayonida tafakkurning shakli, sifati, xususiyatlarini ma'lum darajada sayqallash, rivojlantirish va yo'nalish berish mumkin. Shu bois o'quvchi fikrining ta'sirchanligi, ehtiyotkorligi, ko'lami, harakatchanligi yoki sustligi, ta'sirsizligi ta'lim jarayonining sifatiga ham bog'liq. O'quvchi fikrlashning hissiy, obrazli, mantiqiy salmog'i undagi tafakkur jarayonining rivojlanish sura'ti bilan qanchalik aloqador bo'lsa, ta'limning sifat yo'nilishlari bilan ham shunchalik bog'liqdir.

Maqsad va vazifalari o'zga shaxslar tomonidan belgilanib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'zgalarning bevosita boshqaruvi bilan yuzaga keladigan tafakkur fikr qaramligini anglatadi. Mustaqil tafakkurga ega bo'lmagan kishilar tayyor qarashlar quliga aylanadi. Ularning tafakkuri o'sish- rivojlanishdan orqada qoladi. Mustaqil fikrlash rivojlanmagan hollarda kaltabin, aqlan erinchoq, behavsala, loqayd odam shakllanadi. ***“Tafakkurning qaramligi, mute'ligi shaxs va jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga to'siq bo'lib, alohida odam uchun fojidadir”***, - deydi taniqli psixolog E. G'oziyor.

Fikrning mustaqilligi uning sermahsulligi, samaradorligi bilan uzviy bo'g'liq. Bu keyingi ikki xislat mustaqil fikrning natijasidir. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyalar yaratilgan, nazariy hamda amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday fikr sermahsul, samarali hisoblanadi.

O'qish jarayonida bola tafakkurining faoliyati uning o'zi tomonidan kuzatilmaydi. O'quvchilarda fikrlashning mustaqilligi darajasini nazorat qilish, uni farqlash hamda rivojlantirish – o'qituvchining vazifasi. Buning uchun o'qituvchidan ziyraklik, ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchining shaxsiy va aqliy imkoniyati, berilayotgan bibliylarni tushunish darajasi, intilish va qiziqishlarini to'g'ri hisobga olish talab qilinadi.

Bola turli yosh bosqichlarida turfa qiziqishga ega bo'ladi, o'ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Har yosh bosqichida turlicha faoliyat ko'rsatadi. Beshinchi oltinchi sinf o'quvchilari (11-13 yoshli bolalar)ning ko'pchiligi o'qishga beparvolik bilan qaraydilar. O'zlarini oshiqcha qiynamaydilar, uy vazifasi qilib berilgan topshiriq qo'l uchida bajaradilar, ba'zan shuni ham qilmaydilar. Ko'pincha, o'zlarini ovutadigan boshqa narsalarni o'ylab topishga moyil bo'ladilar.

O'rta maktabning dastlabki bosqichidagi bolalar fikrlashida anchagina sabrsizlik seziladi. Bu davrda ular darsda bajariladigan ishlarning tezligiga ehtiyoj sezadilar, oradagi bo'shliqlarni qiynalib o'tkazadilar. qiyin, murakkab vaziyatlarning uzoq saqlanishini yoqtirmaydilar. Shunisi xarakterliki, bu yoshdagi bolalarning ko'pchiligi berilgan topshiriqni yoki bir o'tirishda hal qiladilar yoki umuman, bajarmay qo'ya qoladilar. Ayrim bolalar,

topshiriqni o'zlari hal qila olishlariga ko'zlari yetsa, o'qituvchining qo'shimcha tushuntirishlaridan qochadilar. Ba'zan ularning fikr ifodalashlarida mustaqillikni ham ilg'ash mumkin.

Maktab ta'limi o'rta bosqichining birinchi bo'g'ni 5-7-sinf o'quvchilari mustaqil fikrlashning shakllanish davrini kechirayotgan bo'lishadi. Bu yoshdagi bolalar boshlang'ichdagi kabi intizomli o'quvchi bo'lib, talab etilgan topshiriqlarni bajarishdan ko'ra o'z kuchini o'zi uchun qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlarga sarflashni xush ko'radilar. Ayni vaqtda ayrim o'quvchilarda aniq amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishga moyillik kuchli bo'ladi.

Katta maktab yoshidagi (8-9-sinf) o'quvchilarda (15-16 yosh) inson tuyg'ularini, uning dunyoqarashini tushunishga bo'lgan qiziqish bir qadar ortib boradi. To'qqizinchi sinf o'quvchilari 5-7-sinflardagi o'smirlar bilan taqqoslab ularda nazariy fikrlarning rivojlanganligini payqash qiyin emas. Bu yoshdagi o'quvchilarda har xil muammolarni o'zlaricha mustaqil hal qilishga intilish kuchayadi. O'zaro tortishuvlar, munoziralar, har xil muhokamalarda qatnashish o'quvchining tabiiy ehtiyojiga aylanadi. Sinflar yuqorilab borgan sari bolada tanqidiy mulohiza kuchayadi.

Adabiyot darslarida mustaqil fikrlasga o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari

Ma'naviy-ma'rifiy buloqlarimiz hisoblangan Qur'oni karim va muborak hadislarda odam ma'naviy kamolotini ta'minlashga doir fikrlar ustuvorlik qiladi. Maktab davrida oquvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ana shu fikrlarga tayanib ish ko'rish ijobiy samara keltiradi. Adabiy ta'lim boshqa o'quv fanlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'tiladigan darslardagi izlanishlar natijasida o'quvchilar avvaldan ayon bo'lgan yagona xulosaga kelishadi. Masalan: olti karra olti dunyoning hamma burchagida, qaysi tilda, qanday yo'llar bilan yechilishidan qat'i nazar, natija bitta – o'ttiz olti bo'ladi. Bu – qat'iy va o'zgarmas haqiqat sanalmish natijaa. Yoki ona tili darslarida "kim?", "nima?" so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar turkumi ot ekanligi hamisha to'g'ri javob hisoblanadi. O'quvchilar gapning morfologik tahlili jarayonida qanday misol berilishidan qat'i nazar, bu so'roqlarga javob beradigan so'zlarning ot ekanligini aytadilar. Bu ham avvaldan aniqlab qo'yilgan yagona haqiqat. Ammo adabiy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni faqat o'ziga tegishli maqsad va vazifalarni belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilib, faqat o'zining shaxiy va badiiy haqiqatni bildirishi mumkin.

O'rganilayotgan badiiy matn, undagi qahramonlar, tasvirlangan biror hodisa yoki vaziyat borasida har bir o'quvchining asar hamda darslik mualliflarinikidan farq qiluvchi o'z xulosasi bo'lishi mumkin va bu mantiqqa zid bo'lmaydi. Masalan, afg'onistonlik komediya yozuvchisi bo'lgan Muhammad



Halim Yorqinning: “Ona tilini unutmang” unvonli komediyani o’qib ko’ramiz:

Ona tilni unutmang!

To’raqulxon! Siz va xotiningizning yetti pushtlaringiz o’zbek bo’laturib, nima uchun uyda dari gapirib, barcha bolalaringiz dari zabon bo’lib, o’zbekchani bilmaydilar?! Sizlar uyda bolalar bilan o’zbekcha so’zlaganlaringizda, bukun ular o’z ona tillarini unutmagan bo’lar edilar!

To’raqulxon bu achchiq, biroq chin so’zlarni o’rtog’idan eshitgach, yuragida milliy his-tuyg’ulari alanga olib, xijolatdan yuziga qon yugurib, peshonasiga ter tomchilari paydo bo’ldi va yonida turgan o’g’llaridan biriga qarab jiddiy ohangda dedi:

Bihruzjon! Pas azi ko’shish kuninki bazabon modari xud “o’zbeki” gap bizanin, fahmidi, jonim!!

Yuqoridagi komediyani o’qigandan keyin bu yerda ayb kimda ekanliga to’g’risda savol berilsa, har bir oquvchining qaytaradigan o’z javobi bo’ladi. O’quvchilardan biri To’raqulxonni, bittasi jamiyatdagi o’zbek xalqining tiliga adolatsiz munosabatni, yana biri bolalarni o’z ona tilida aloqa qilishga o’rgatmagan maktabni ayblaydi. Har kim nima uchun shunday xulosaga kelganini matndan dalillar keltirgan holda yoki hayotiy xulosalari bilan asoslaydi va bu har bir o’quvchining o’z fikri, xulosasi, aytish joyiz bo’lsa, o’z haqiqati hisoblanadi.

Bolaning qiziquvchanligi, bilishga intilishi so’nmagan davrida undagi mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, shaxsiyatida ijobiy fazilatlar shakllantirishga, mustaqil fikr egasini tarbiyalashga erishish maktab ta’lim- tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatmoqchi bo’lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to’qishga, sarguzashtlar yaratishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo’ladigan masalalarga sarflashga yo’naltirish lozim. **“Zerikish - fikrning dushmani”**, - degan edi italiyalik ertakchi adib J. Rodari.

Shuningdek, Jan-Jak Russo bolaning tarbiyasi yuzasidan fikr yuritib: **“Bog’dagi daraxtlarning yangi o’sadigan ko’chati kerakli shaklda bo’lishi uchun yaxshi va maslaki bog’bon qo’lida tarbiya ko’rishi kerak bo’lani kabi ...bola tarbiyasi yaxshi bo’lishi uchun ham yaxshi o’qituvchi qo’lida tarbiya ko’rsin”**.

Adabiyot o’qitish jarayonida o’quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o’qituvchidan o’quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning qanchalik to’g’riligini tekshirish va dalillashga, bu yo’lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishni o’rgatishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlariga, hattoki o’qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat’i nazar, o’z fikrini aytishga o’rgatish kerak bo’ladi. Muallim tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi; qolipda fikrlashga yo’l qoymasligi, nafaqat



darslik mualliflari, balki o'rtloqlarning fikr-mulohizalarini ko'r-ko'rona takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga yetaklashi; har bir o'quvchining aql-idrok darajasini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; har bir o'quvchi oldiga o'ziga xos muammo qo'ya olishi va uni yechishga yo'naltirishi, uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga odatlantirishi zarur.

O'quv topshiriqlarning noto'g'ri qo'yilishi, o'quvchilardan erkin mulohaza yuritishni izchil ravishda talab etmaslik va mustaqil fikrlash qobiliyati qanchalik rivojlanganiga e'tibor bermaslik adabiyot darslarida fikr yuritish faoliyati mustaqilligini rivojlantirishga to'siq bo'ladigan asosiy sabablardir. O'quvchilardagi tanqidiy tafakkur va mulohazaning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi, estetik did hamda madaniy saviyaning pastligi badiiy asar qimmatini yuzaki baholashga olib keladi. O'rganilayotgan asar to'g'risida chuqur fikr yuritmasdan turib unga baho berishga shoshilish hollari asl turmush bilan badiiy asar o'rtasidagi farqni anglay olmaslikdan kelib chiqadi.

Adabiyot darslarida o'quvchini faqat o'zi yaxshi bilgan, ko'p va chuqur o'ylagan narsalar haqida fikrlashga, yozishga undash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchining mehnati oson bo'lishi kerak emasligi, ularni mustaqil bilim olish, ko'nikma shakllantirish, malaka hosil qilishi, mehnatga qiziqtirish, o'zida muayyan axloqiy sifatlarni qaror toptirishga odatlantirish zarurligi, bu esa qiyinchiliksiz amalga oshmasligi taniqli pedagoglar tomonidan ko'p bor ta'kidlangan. Faqat qiyinchiliklarning me'yorini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda o'z fikrini ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga boshlang'ich sinflardan e'tibor berish lozim. Ma'lumki, boshlang'ich sinf va kichik o'smirlik davrida diktant yoki bayon yozishda yaxshigina natijalarga erishgan o'quvchilar yuqori sinflarga borganda adabiy yoki erkin mavzularda ijodiy ishlar yozishga qiynalib qoladilar.

Adabiyot darslarida o'qituvchining asosiy ishi badiiy asarni o'qib berish, matn haqida o'quvchilar bilan suhbatlashish, uni tahlilini tashkil qilishdan iborat.

Adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ular bilan asar haqida suhbatlashish, bolalarni asar yuzasidan berilgan savollarga faqat matndan javob izlashga yo'naltirish, savol-tipshiriqlar yordamida o'quvchini asar mohiyatiga olib kirish, undagi tasvir haqida ongli ravishda, to'la ishonch bilan ma'lum xulosalarga kelishga ko'maklashish kerak bo'ladi.

XULOSA

Yuqorida aytilganlarga tayanib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, fikrlash bevosita o'z yo'naltiruvchi kuchi, maqsadi, usullariga ega bo'lgandagina mustaqil ko'rinishga ega bo'ladi. Fikrlashning mustaqilligi kishi shaxsiyati va siyrati, bilan bog'liq.



Demak, umuman, fikrlaganda narsa-hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlari bilib olinadi. Mustaqil fikrlaganda esa, odam olam hodisalari va hayotiy vaziyatlar mohiyati haqida o'zgalarnikiga o'xshamagan yo'sinda, o'ziga xos to'xtamlarga kelinadi. Olib borilgan kuzatishlarga tayanib, mustaqil fikrlashga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ***“Mustaqil fikrlash- insonning o'z oldida turgan muammoni aniq belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq holda bilimi hamda hayotiy tajrubalariga tayanib, o'z aql-idrok imkoniyati darajasida hal qilishga qaratilgan aqliy faoliyatidir”***.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda dars shaklini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quv materialarining mazmuni, hajmi, darsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va qiyinlik darajasini belgilash; materialning o'quvchi hayotiy tajribasi, ilgari o'zlashtirilgan bilimi va aqliy-amaliy faoliyat bilan aloqasini o'rnatish; o'quvchining mustaqil ishlari va o'quv topshiriqlari tizimini aniqlash; darsning jihozlarini, axborotlarining asosiy va qo'shimcha manbalarini o'rnatish ko'zda tutiladi.

REFERENCES

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi.- T.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
2. Alishir Navoyi. Xamsa. Farhod va Shirin. -T.: 1991.- 122- bet.
3. Akbari Alixon. Majmua maqolot huyat dar Iron. Hijri 1383- yil.
4. G`oziyev E. tafakkur psixologiyasi. T “o'qituvchi” 1990. 60- bet.
5. Родари ж грамматика фантазий переводс италян. Ю.А.добровольский. москва прогресс, 1978.

